

BADIIY FOTOGRAFIYANING NAZARIY ASOSLARI VA RIVOJLANISHI

Egamberdiyeva Guljahon

*Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti
Kompyuter grafikasi va badiiy surat mutaxassisligi magistranti*

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada badiiy fotografiyaning shakllanishi, uning nazariy asoslari hamda tarixiy rivojlanish bosqichlari tahlil qilinadi. Fotografiyaning faqat texnik jarayon emas, balki mustaqil badiiy tafakkur mahsuli ekanligi estetik, falsafiy va san'atshunoslik nuqtayi nazaridan yoritiladi. Tadqiqotda fotografiyaning tasviriy san'at bilan o'zaro aloqasi, badiiy obraz yaratishdagi ifoda vositalari hamda zamonaviy san'atdagi o'rni aniqlab beriladi. Maqola natijalari san'atshunoslik, tasviriy san'atni o'qitish metodikasi va fotografiya nazariyasini chuqur o'rganishda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: badiiy fotografiya, estetik obraz, vizual tafakkur, kompozitsiya, nur va soya, fotografiya tarixi.

ХУДОЖЕСТВЕННАЯ ФОТОГРАФИЯ: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И РАЗВИТИЕ

Аннотация: В данной научной статье анализируются процессы формирования художественной фотографии, её теоретические основы и этапы исторического развития. Фотография рассматривается не только как технический процесс, но и как самостоятельный продукт художественного мышления, что раскрывается с эстетической, философской и искусствоведческой точек зрения. В исследовании выявляются взаимосвязи фотографии с изобразительным искусством, средства художественной выразительности при создании образа, а также её место в современном искусстве. Результаты статьи имеют важное научное значение для искусствоведения, методики преподавания изобразительного искусства и углублённого изучения теории фотографии.

Ключевые слова: художественная фотография, эстетический образ, визуальное мышление, композиция, свет и тень, история фотографии.

ARTISTIC PHOTOGRAPHY: THEORETICAL FOUNDATIONS AND DEVELOPMENT

Abstract: *This scientific article examines the formation of artistic photography, its theoretical foundations, and the main stages of its historical development. Photography is considered not merely as a technical process but as an independent product of artistic thinking, analyzed from aesthetic, philosophical, and art-historical perspectives. The study explores the relationship between photography and visual arts, the expressive means used in creating artistic images, and the role of artistic photography in contemporary art. The results of the research are of significant academic value for art studies, teaching methodology of visual arts, and in-depth exploration of photographic theory.*

Keywords: *artistic photography, aesthetic image, visual thinking, composition, light and shadow, history of photography.*

Kirish. Mamlakatimizning kelajakda buyuk mamlakatga aylanishi, rivojlangan davlatlari qatoriga qo'shilishida xalqimiz madaniyati, ma'rifati, san'ati va manaviyatining roli beqiyosdir. Xalqimiz ma'naviyat va madaniyatini boyitishda san'atning ham o'z o'rni bor. Hozirgi davrda har sohada bo'lgani kabi tasviriy va amaliy hamda dizayn sohasini o'rganish borasida ham katta o'zgarishlar bo'lmoqda.

Shu o'rinda tasviriy va amaliy san'at sohasining badiiy fotografiya yo'nalishi borasida ilmiy izlanish olib bo'lsak, bunda ushbu san'atning jozibadorligi, insobga zavq ba'ishlashi hamda hotiralarni asliday tarixga muhrlay olish imkonini berishi bilan boshqa san'at turlaridan ajralib turadi.

Fotografiya insoniyat tafakkurida vizual idrokni rivojlantiradigan eng muhim san'at turlaridan biri hisoblanadi. Dastlab hujjatlashtirish va axborot yetkazish vositasi sifatida shakllangan fotografiya vaqt o'tishi bilan badiiy tafakkur va estetik ifoda vositasiga aylandi. Ayniqsa, badiiy fotografiya real borliqni mexanik aks ettirishdan voz kechib, muallifning ichki dunyosi, estetik qarashlari va konseptual yondashuvlarini ifodalovchi mustaqil san'at shakliga aylandi.

Zamonaviy san'at jarayonida badiiy fotografiya rangtasvir, grafika va kino san'ati bilan chambarchas bog'lanib, ko'p qatlamli ma'no va ramziy ifodalar yaratishga xizmat qilmoqda. Shu sababli badiiy fotografiyaning nazariy asoslarini chuqur tahlil qilish va uning tarixiy rivojlanishini ilmiy jihatdan yoritish dolzarb masala hisoblanadi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi badiiy fotografiyaning nazariy konsepsiyalarini aniqlash hamda rivojlanish bosqichlarini ilmiy asosda yoritishdan iborat bo'lib aniq ma'lumotlar keltirilgan.

Mavzuning dolzarbligi. Bugungi kunda jamiyatimizda raqamli texnologiyalar rivoji natijasida badiiy fotografiya sohasi keng ommalashgan bo'lsada, uning badiiy va nazariy jihatlari ko'pincha texnik imkoniyatlar sohasida qolib ketmoqda. Shu bois badiiy

fotografiyani mustaqil san'at turi sifatida ilmiy asosda o'rganish bugungi san'atshunoslik yo'nalishining dolzarb masalalaridan biridir.

Badiiy fotografiya real voqelikni bevosita aks ettirish bilangina cheklanib qolmay, murakkab badiiy tizim sifatida namoyon bo'ladi. Fotografiyada kompozitsiya, nur va soya, rakurs hamda vaqt omilining uyg'unligi badiiy obraz yaratishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu jihatlarni nazariy jihatdan tahlil qilish va chuqurroq o'rganish imkonini beradi.

Shuningdek, mazkur mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, badiiy fotografiyaning tarixiy rivojlanishi va nazariy asoslarini kompleks tahlil qilish orqali uning zamonaviy san'atdagi o'rni, atrof-muhitni muhofaza qilishni targ'ib qilishdagi ahamiyatini aniqlash mumkin. Bu esa san'at yo'nalishidagi olib boriladigan tadqiqotlarini boyitish, fotografiya san'ati nazariyasini tizimlashtirish va amaliy ijod jarayonini ilmiy asoslashga xizmat qiladi.

Metodologiya. Tadqiqotni o'rganish jarayonida tarixiy-tahliliy, qiyosiy-estetik va tizimli yondashuv metodlaridan foydalanildi. Badiiy foto san'atiga oid ilmiy manbalar, san'atshunoslik tadqiqotlari hamda mashhur fotograf rassomlarning ijodiy tajribalari o'rganildi. Shuningdek, fotografiyaning rangtasvir va grafika san'ati bilan o'zaro aloqasi, atrof-muhitni muhofaza qilishni targ'ib qilishdagi ahamiyati vizual-kompozitsion tahlil orqali tadqiq etildi.

Metodologik asos sifatida estetik nazariya, vizual madaniyat konsepsiyasi va san'at falsafasiga oid qarashlar qo'llanildi. Ushbu yondashuv badiiy fotografiyani faqat texnik jarayon sifatida emas, balki estetik va g'oyaviy tizim sifatida talqin etishga imkon berdi.

Muhokama va natijalar. Izlanishlardan ma'lum bo'ldiki, "Inson tafakkurining mahsuli bo'lgan fotografiya XIX asrda O'rta Osiyoga, jumladan, O'zbekistonga kirib keldi. Dastlab yevropalik sayyoh va o'lkashunoslar tomonidan hududning tabiati, tarixi va me'moriy merosini hujjatlashtirish maqsadida qo'llanilgan fotografiya keyinchalik badiiy va ilmiy ahamiyat kasb etdi. Anton Murenko, Stanislav Nikolai, Nikolay Veselovskiy va S. Dudin kabi fotograf va olimlar Xiva, Toshkent va Samarqanddagi tarixiy obidalarni tasvirga olib, ularni ilm-fan uchun saqlab qoldilar. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Samarqand fotografik ekspeditsiyalarning muhim markaziga aylandi. Keyinchalik Aleksandr Rodchenko va uning izdoshlari ijodida O'zbekiston mavzusi jahon fotosan'ati miqyosida yuksak baholandi. Tarixiy talafotlar fonida fotografiya madaniy merosni saqlashning muhim vizual manbasi sifatida namoyon bo'ldi. 1910 yilga kelib, Toshkent shahrining o'zida 20 ta fotografiya atelyesi faoliyat ko'rsatgan. Ushbu atelyelarda yaratilgan qator fotoasarlari Yevropa va Amerika Qo'shma Shtatlarida o'tkazilgan xalqaro fotoko'rgazmalarda namoyish etilib, yuksak mukofotlarga sazovor bo'lgan. Xususan, 1908 yilda Fransiyaning Marsel shahrida bo'lib o'tgan Butunjahon fotoko'rgazmasida D. Nazarovning suratlari oliy mukofot — "Gran-pri" bilan taqdirlangan. Mazkur atelyelardan biri — "Ilhomjon Inog'omovning

musulmon fotografiyasi” bo‘lib, u 1902 yil 14 aprel kuni Shayxontohur dahasining Hovuzbog‘ mahallasida tashkil etilgan.”⁵⁴

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, badiiy fotografiya tasviriy san‘atning boshqa turlari bilan teng huquqli san‘at shakli sifatida rivojlanmoqda. Fotografiyaning estetik qiymati nafaqat texnik mukammallik, balki muallifning g‘oyaviy yondashuvi va vizual tafakkur darajasi bilan belgilanadi.

Badiiy fotografiyada vaqt va makon tushunchalari o‘ziga xos tarzda uyg‘unlashib, tomoshabinni chuqur fikrlashga undovchi obrazlar yaratadi. Bu jihat uni zamonaviy san‘atda muhim kommunikativ vositaga aylantiradi. Shu bilan birga, fotografiyani o‘qitish jarayonida uning nazariy asoslariga e‘tibor qaratish tasviriy san‘at ta‘limining sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, badiiy fotografiyaning nazariy asoslari bir nechta muhim omillarga tayanadi. Birinchidan, badiiy fotografiya real voqelikni bevosita nusxalash emas, balki muallif tomonidan qayta talqin qilingan estetik obrazni yaratishga yo‘naltirilgan. Ikkinchidan, fotografiyada kompozitsiya, yorug‘lik va soya, ranglar uyg‘unligi hamda rakurs tanlovi asosiy badiiy ifoda vositalari sifatida namoyon bo‘ladi. Shuningdek uchinchidan, ushbu san‘at turi orqali ekologik muammolarni yoritish jamiyatda barqaror rivojlanish g‘oyalarini qaror toptirishga xizmat qiladi.

Tarixiy jihatdan fotografiyaning rivojlanishi dastlab hujjatli va portret yo‘nalishlari bilan bog‘liq bo‘lgan. Keyinchalik piktorializm, modernizm va kontseptual fotografiya kabi yo‘nalishlar paydo bo‘lib, fotografiyani mustaqil san‘at turi sifatida shakllantirdi. “Tarixiy hujjatlarning tahlili shuni ko‘rsatib beradiki, XIX asrning birinchi yarmiga kelib, fotosurat sezilmaydigan tarzda o‘zining muqobil taraqqiyot bosqichini shakllantirdi. Jahon fotosurat tarixini rivojlanishi bilan “Fotosurat sivilizatsiyasi”ga asos solindi desak mubolag‘a qilmagan bo‘lamiz. Bu sivilizatsiyaning o‘ziga xos tomoni shundaki, fotosuratning insoniyat tarixini yoritishdagi o‘ziga xos usullari va mexanizmlarni ishlab chiqishda bu davr o‘ziga xos ahamiyat kasb etdi.”⁵⁵ Ayniqsa, XX asrda fotografiyaning subyektiv va falsafiy talqini kuchayib, u inson tafakkuri va zamonaviy jamiyat muammolarini ifodalovchi san‘atga aylandi.

Zamonaviy davrda raqamli texnologiyalar badiiy fotografiyaning ifoda imkoniyatlarini kengaytirib, vizual tajriba va kontseptual yondashuvlarni yanada boyitdi.

⁵⁴ <https://kh-davron.uz/kutubxona/multimedia/naim-karimov-xudoyberdi-devonov.html> Naim Karimov. Ilk o‘zbek fotografi & Xudoyberdi Devonov haqida ikki hujjatli film

⁵⁵ Jahongir G‘opurjonovich Inoyatov (2021). FOTOGRAFIYA SANATINI VUJUDGA KELISHI VA UNING TARIXIY AHAMIYATI. Academic research in educational sciences, 2 (5), 589-593. doi: 10.24411/2181-1385-2021-00930

Xulosa qilib shuni aytilish mumkinki, badiiy fotografiya estetik tafakkur, texnik mahorat va falsafiy yondashuv uyg‘unligida shakllangan mustaqil san’at turidir. Uning nazariy asoslari kompozitsiya, yorug‘lik, obraz va muallif pozitsiyasiga tayanadi. Tarixiy rivojlanish jarayonida badiiy fotografiya hujjatli tasvirdan kontseptual san’at darajasigacha yetib kelgan.

Ushbu tadqiqot natijalari badiiy fotografiyani ilmiy jihatdan o‘rganish, mazkur sohasida olib borilayotgan tadqiqotlar, magistrlik dissertatsiya ishlari va amaliy san’at ta’limida foydalanish uchun muhim ilmiy manba bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Jahongir G‘opurjonovich Inoyatov FOTOGRAFIYA SANATINI VUJUDGA KELISHI VA UNING TARIXIY AHAMIYATI // Academic research in educational sciences. 2021. №5. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/fotografiya-sanatini-vujudga-kelishi-va-uning-tarixiy-ahamiyati> (дата обращения: 31.01.2026).
2. Буринский В. Ф. Луи Дагер и Жозеф Ньепс : их жизнь и открытия в связи с историей развития фотографии. М.|Берлин Директ-Медиа 2016.
3. Мишель Фризо. Новая история фотографии = Nouvelle Histoire de la Photographie / А. Г. Наследников, А. В. Шестаков. — СПб.: Machina, 2008.
4. Zarifova, D. (2023). TEACHING TECHNOLOGY OF THE TOPIC OF PORTRAIT OF THE HUMAN HEAD IN PAINTING. Modern Science and Research, 2(10), 391-393.
5. Zarifova , D. O. qizi. (2023). SHARQ GRAFIKA SAN’ATIDA MAISHIY JANRNING O‘RGANILISHI. Innovative Development in Educational Activities, 2(9), 57–62. Retrieved from <https://openidea.uz/index.php/idea/article/view/1259>
6. Omon qizi, Z. D. (2025). The Role of Self-Portrait in Shaping Students’ Personal Identity and Creative Expression. American Journal of Education and Evaluation Studies, 2(9), 107–108. Retrieved from <https://semantjournals.org/index.php/AJEES/article/view/2438>
7. <https://tsuull.uz/uz/content/badiiy-fotografiya-muammolar-va-istiqbollar>
8. <https://kh-davron.uz/kutubxona/multimedia/naim-karimov-xudoyberdi-devonov.html>
Naim Karimov. Ilk o‘zbek fotografi & Xudoyberdi Devonov haqida ikki hujjatli film.